



APPLICATION OF METHODS IN THE FORMATION OF READING LITERACY OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN

Xudayberdiyeva M.A.

Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6473451>

Annotation: *The article covers the techniques of “Prophecy”, “Feel”, “Lost information” and the technology of their use in the formation and development of Reading Literacy in the primary class reading lessons, and these techniques serve to shape the students creative and critical thinking skills.*

Keywords: *reading literacy, “Prophecy“, “Feel“, “Lost information” techniques, logical thinking, creative thinking.*

BOSHLANG’ICH SINFDADA O’QUVCHILARNING O’QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA QO’LLANADIGAN METODLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’qish darslarida o’qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishda “Bashorat”, “His eting”, “Yo’qotilgan ma’lumot” metodlari va ulardan foydalanish texnologiyasi yoritilgan bo’lib, ushbu metodlar o’quvchilarni ijodiy va tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so’zlar: *o’qish savodxonligi, “Bashorat”, “His eting”, “Yo’qotilgan ma’lumot” metodlari, mantiqiy fikrlash, ijodiy tafakkur.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari



qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.[2, 6]

Ushbu vazifalarni bajarishda o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirish muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Chunki boshlang'ich sinfda o'quvchilarning o'qish savodxonligini shakllantirmasdan ta'lim samaradorligiga erishib bo'lmaydi.

O'qish savodxonligi - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyatidir.[10]

O'qish darslarida badiiy asarlarni o'rganishga doir ijodiy xarakterdagi o'quv topshiriqlari o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish va bilish jarayonlarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarini quyidagi metod va strategiyalardan foydalangan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

O'qish darslarida o'quvchilarning taxmin qilish, xayolan tasavvur qilish, uzoqni ko'zlay olish ko'nikmalarini shakllantiradigan metodlardan biri bu **“Bashorat”** metodidir.

Ushbu metoddan “Mo'jiza” hikoyasini o'tishda foydalanishimiz mumkin. Avval o'quvchilardan o'tilishi kutilayotgan matn sarlavhasi bo'yicha asar nima haqida ekanligini taxmin qilish so'raladi:

Nega yozuvchi hikoyani "Mo'jiza" deb nomlagan?

Hikoyada qanday mo'jiza yuz berishi mumkin?

O'quvchilar hikoya nomi va hikoyada berilgan rasmdan kelib chiqib o'z tasavvurlarini aytadilar. So'ng o'qituvchi matnni o'qib beradi. Hikoyadagi “ovchining miltiq tepkisini bosib yubordi” qismida o'qish to'xtatiladi va o'qituvchi o'quvchilarga murojaat qiladi: “ Nima deb o'ylaysiz, ovchi otgan o'q quyonga



tekkan bo'lishi mumkinmi? Unda asar voqealari qanday tus olishi mumkin? Bashorat qilamiz". O'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilishadi. So'ng o'qituvchi matnni davom ettiradi. O'quvchilarning diqqati o'zlari bildirgan fikr qay darajada hikoyaga yaqinligini bilish maqsadida ortadi, matnga bo'lgan qiziqishi kuchayadi.

Ushbu metod o'quvchilarga boshqa odamning nuqtai nazariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga yordam beradi va agar u yetarli darajada asoslanmagan bo'lsa yoki dalillar asossiz bo'lib chiqsa, xotirjamlik bilan o'z nuqtai nazarini rad etadi. [7]

“Yo'qotilgan ma'lumot” metodi. Sinf o'quvchilari kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga berilgan tarqatmada o'rganilayotgan biror bir badiiy asar: hikoya, masal yoki she'ning bir qismi olib tashlanadi, ya'ni ma'lumot yo'qoladi. O'qituvchi o'quvchilarga yo'qolgan ma'lumotni topishlari kerakligini aytadi. O'quvchilar kitobdagi ma'lumot bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotni izlashga kirishadi. Ular asarni o'qigandan so'ng "yo'qolgan" ma'lumotni topadilar va olgan bilimlari asosida guruh a'zolari bilan muhokama qilib ma'lumotlarni qog'ozga tushuradilar. Har bir guruh o'zida bo'lmagan ma'lumotni qayta tiklab so'zlab beradi. Bunda o'quvchilar tiklagan ma'lumot asarning mazmunini saqlab qolishi lozim. [4, 78]

4-sinf o'qish darsligidagi Habib Rahmatning “Kuz ko'rinishlari” she'ridan har bir guruhga she'ning ma'lum bir bandi tushurib qoldirilgan tarqatmalar beriladi. Masalan, she'ning ushbu bandi tushurib qoldiriladi:

Daraxt bargi tillarang,

Mevalardan tomar bol.

Dalalarga bir qarang,

Oq gullardan chamanzor.

O'quvchilarga she'ni muhokama qilib uning mazmunini quyidagicha yozishlari mumkin: She'rdagi bog'lar va dalalar tasvirlangan band yo'qolgan. Ushbu bandda daraxt barglarining sarg'ayganligi, mevalarning shirin



bo'lib pishib yetilganligi va dalalardagi paxtalarning oppoq bo'lib ochilganligi tasvirlangan.

Ushbu metodni qo'llashdan maqsad xayolan yo'qotilgan ma'lumot mavjud ma'lumotga aniqlik kiritishga va o'quvchilarda she'r mazmunini o'z so'zlari bilan ifodalay olish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

“His eting” metodi. Mazkur strategiyani biror narsaga timsol berishda qo'llash mumkin. O'quvchilar biror bir ob'ekt yoki buyum o'rniga o'zlarini qo'yib ko'radilar. Bunda ularga quyidagi savollar yordam beradi:

O'zingizni qanday his etyapsiz?

Nima haqida o'ylayapsiz?

Hozir nima qilmoqchisiz?

Ushbu metodni asarga qisqacha muzum berish, asar qahramonining fe'l-atvorini ta'riflab berish yoki asardagi bir qahramonni boshqasi bilan taqqoslashda foydalanish mumkin. Bu usul asar yoki uning qahramonlarini muhokama qilishda katta samara beradi.[4, 79]

“Qodir boboning orzusi” hikoyasidagi Qodir boboning hikoya boshi va oxiridagi his-tuyg'u, o'y-xayollari va ichki kechinmalarini tasvirlashda qo'llash mumkin.

Qodir bobo	O'zingizni qanday his etyapsiz?	Nima haqida o'ylayapsiz?	Hozir nima qilmoqchisiz?
Asar boshida	Notinch, xomush, o'yga tolgan	Kasbimni kim egallarkin?	O'g'illarimdan birini kasbimni davom ettirishga yo'naltirishim kerak.



Asar so'ngida	Xotirjam, ko'nglim taskin topdi	Kasbim davomchisi nevaram bo'ladi. Ulg'ayib yangi turdagi mashinalar ixtiro qiladi.	Nevaramni yoshlikdan mashinasozlikka tayyorlayman.
----------------------	---------------------------------------	--	---

Bola tafakkuri, qiziqishi, xayolot olami va moyilliklari, asosan, boshlang'ich sinflardan shakllanib individual qiyofa kasb eta boshlaydi. Bu davrda o'rganilishi ko'zda tutilgan o'quv fanlarining har biri boladagi hissiy-irodaviy xususiyatlar va bilish jarayonlarining qaysidir biriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

O'qish darslarida ushbu turdagi metodlardan foydalanish esa o'quvchilarda nutq madaniyati, kommunikativlik, bog'li nutq, mantiqiy fikrlash va ijodiy tafakkurini kamol toptirishda o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagil 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni.
2. A. Ismoilov va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. (o'quv qo'llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. – 94 b.
3. A. Ismoilov va b. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma 3-son— T: "MMMM", 2021-yil. – 140 bet
4. M. Usmomboyeva. Kreativ pedagogika asoslari (o'quv-uslubiy majmua) – T.: 2016. – 193 b.
5. S. Matchonov va b. "O'qish kitobi" (4-sinf uchun darslik) T.: "Yangi poligraph servis", 2020 – 160 bet.



6. Васильева Т.Б. Развитие читательской грамотности в начальной школе, как одного из компонентов функциональной грамотности учащихся, с применением современных технологий.
https://nsportal.ru/download/#https://nsportal.ru/sites/default/files/2021/06/16/s_tatya_chitatelskaya_gramotnost_detey_v_nachalnoy_shkole_vasileva_t.b.docx
nsportal.ru
7. www.tdi.uz